

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA MUXAMMAS JANRINING O‘RNI

Jabborova Matluba Rustamovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Email: Djabborova_m@navoiy-uni.uz*

Sindarova Rahbaroy Shuhrat qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich talabasi
Email: sindarova_rahbaroy@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843760>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiy lirikasida muxammas janrining tutgan o‘rni va uning o‘ziga xosliklari hamda shoir mahorati tahlil qilinadi. Navoiy muxammaslarining o‘zbek she‘riyati badiiy olamini boyitishdagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: musammat, musamman, devon, badiiy san‘at, kulliyot.

Аннотация: *В данной статье анализируется место жанра мухаммаса в лирике узбекского мыслителя Алишера Навои, его особенности и мастерство поэта. Раскрывается значение мухаммаса Навои в обогащении художественного мира узбекской поэзии.*

Ключевые слова: мусаммат, мусамман, диван, художественное искусство, собрание.

Annotation: *This article analyzes the place of the muhammas genre in the lyrics of the Uzbek thinker Alisher Navoi, its peculiarities and the poet's skill. The importance of Navoi's muhammas in enriching the artistic world of Uzbek poetry is revealed.*

Keywords: musammat, musamman, devon, artistic art, collection.

Kirish. Alisher Navoiy — o‘zbek mumtoz adabiyotini yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘targan buyuk mutafakkir va so‘z san‘atkoridir. Uning lirik merosi janr va shakl jihatidan nihoyatda boy bo‘lib, g‘azal, qasida, ruboiy, tuyuq va qit‘a qatorida muxammas ham muhim o‘rin egallaydi. Shoir an‘naviy shakllarni takomillashtirib, ularni yangi mazmun va ruh bilan boyitgan. Alisher Navoiy she‘riyati janrlarga boyligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning turkiy tilda yaratgan she‘rlari 16 janrda bo‘lib, ushbu ijod namunalari tom ma‘noda shakl va mazmun birligining yuksak namunasi hamdir. Ushbu 16 janr orasida muxammas alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘rganishlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, shoir o‘z g‘azallariga muxammas bog‘lashdek yangi an‘naga asos solgan ekan[7: 1].

Adabiyotlar tahlili. Muxammas – arabcha, beshlik, degan ma‘noni anglatadi. Musammatning bir turi hisoblanadi. Hofiz Xorazmiy muxammasni boshlovchi shoir sifatida tanilgan. Yusuf Amiriy ham muxammas yozgan. Alisher Navoiy – o‘zbek adabiyotida muxammasni taraqqiy ettirgan shoir. Uning “Ohkim”, “Ohkim, volamen” muxammaslarida romantik metod va realistik yo‘nalishlar birikib ketgan[1: 220]. O‘zbek lirik poeziyasida g‘azal va musammat tarixi va rivojini mufassal tadqiq etgan olim R.Orzibekov bu haqda shunday yozadi: «...Musammatning tazmin usulidagi ilk

namunalarini yaratish bilan Navoiy o'z g'azali asosida musammatlar yaratish an'anasini boshlab berdi. Alisher Navoiy boshqa qator lirik janrlarning reformatori bo'lganidek, Sharq musammatchiligi imkoniyatlarini kengaytirdi. U o'z ijodi misolida bu sohada ham hayotbaxsh adabiy maktab yaratdi. Musammatning muxammas, musaddas va musamman kabi tazmin shakllarini kashf etdi»[4:34]. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida yozilishicha: "Musammati muxammas besh misra' bo'lur. To'rt misraning oxirinda sab' qilib (rang berib,bezab),beshinchi misrada asl qofiyaga ruju' qilurlar". Bunga misol tariqasida esa Nosir Buxoriy va Subhoni Soniy Ali Hakim Termiziydan namunalar keltirgan.

Omad bahoru gasht chu xuldi barin chaman,
Bikushod bod parda zi ruxsori yosuman,
Sad pora kard ham zi havo g'uncha sari man,
Bulbul daromad az dari har shoh dar suxan,
Kimro'z ro'zi boda-u gulzoru ishrat ast[5:25-26].

Bundan ma'lum bo'ladiki,muxammas janrida fors ijodkorlari ham qalam tebratgan,ammo shu zaminda Alisher Navoiy davri adabiy hayotida musammatning tazmin usulida yaratilgan namunalari kashf etilib,turkiy-o'zbek she'riyatining janr tarkibi boyitilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar"dostoniga 3 ta muxammas kiritilgan bo'lib,shulardan bittasi Lutfiyning "Ey soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami" g'azaliga, qolgan 2 tasi o'z g'azallariga bitilgan. Shuningdek, "Navodir ush-shabob"dagi uch muxammasdan bittasi Lutfiy,ikkitasi o'z g'azaliga bog'langan. "Badoye' ul-vasat" devonida bittadan Lutfiy va o'z g'azallariga muxammaslar bor. "Favoyid ul-kibar" devonidan esa shoirning o'z g'azallariga bog'langan ikki muxammasi o'rin olgan. Navoiy "Badoye' ul-bidoya" devoniga 5ta muxammas kiritgan va shulardan 3tasi Lutfiy g'azaliga, 2tasi o'z g'azallariga bitilgan.Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy 15ta muxammas yozgan,shulardan 6 tasi Lutfiyga ,qolgani esa o'zining g'azallariga bitilgan. Ulug' shoirning o'z g'azallariga taxmis bog'lash hodisasini D.Yusupova quyidagicha izohlaydi: "Alisher Navoiy tanlagan g'azalda buyuk shoirning dard-u dunyosi, albatta, aks etishi shart edi. Ehtimol, Alisher Navoiy muayyan bir ijodiy salohiyatga yetishgandan so'ng turkiy adabiyotda mana shunday she'r namunasi uchun kelmagandir, boshqa shoirlarning baytlarida o'z olamining aks-sadosini his etmagandir?! Bu esa badiiy didi yuksak bo'lgan Alisher Navoiyning o'z g'azallariga taxmis bog'lashiga olib kelgan bo'lishi mumkin"[7:6].

Tahlillar va natijalar. "Xazoyin-ul maoniy" kulliyotining "Navodir -ush shabob" devonida keltirilgan "Ohkim, volehmen" deb boshlanuvchi 7 band, 42 misradan iborat muxammasida ishq dardining og'irligi va yordan ayriliq firog'i yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Ohkim, volehmen ul sarvi xiromondin judo,

Ko‘zlarim giryondur ul gul bargi xandondin judo,
Benavodur jon dag‘i ul huri rizvondin judo,
Be navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkaristonidin judo[2:661-662].

Muxammas *aaaaaa,bbbba,ccccca...* tarzida qofiyalangan. Qofiyadagi tirgak harf raviiy bo‘lib, u “tub so‘zlarda o‘zak oxirida, yasama so‘zlarda esa negiz so‘ngida keluvchi cho‘ziq unli yoxud undosh harfdir”[3:196] Tahlil etilayotgan banddagi *xiromondin – xandondin – rizvondin – gulistondin – shakkaristonidin* qofiyadosh so‘zlaridagi raviiy “n”tovushi bilan ifodalanganligi va asosdan keyin -din qo‘shimchasi kelganligi sababli mutlaq qofiya turiga kiradi. Birinchi misrada oshiq “sarvi xiromon” kabi yoridan ajralganligi tufayli o‘zini voleh, ya’ni sargardonman deya ataydi. Ikkinchi misrada esa giryon, yig‘loqi ekanligini ta’kidlaydi. U kulib turgan gulga o‘xshash yoridan – mahbubasidan ayrilganligi uchun tinimsiz yosh to‘kadi. Keyingi misrada esa yorni jannat bog‘ining huri sifatida tasvirlab, bu firoq uning jonini o‘rtayotganini aytadi. Barchamizga ma’lumki, mumtoz adabiyotda “oshiq” ramzini ifodalash uchun bulbul timsolidan keng foydalaniladi. To‘rtinchi misrada esa u gul timsoli bilan uyg‘un holda oshiqning iztiroblarini tasvirlash uchun qo‘llanilgan. To‘ti timsoli esa adabiyotimizda shirinso‘zlik ramzi bo‘lib keladi. Oxirgi misrada esa to‘ti qushi o‘zining shakkaristonsiz ,shirin so‘zlar makonisiz yashay olmaganidek, oshiq uchun ham yorsiz bu dunyoda na ohang ,na ma’no bor. Shoir oshiqning mahbubasidan uzoqda qolgan holdagi ruhiy iztiroblarini tasvirlaydi. Muxammasning oxirgi bandidagi “Bo‘lmasun, yo Rabki, hargiz banda sultondin judo” misrasi butun muxammasning g‘oyaviy cho‘qqisi deyishimiz mumkin. Bu yerda “sulton” deganda ham dunyoviy ishq, ham ilohiy ishq, ya’ni Alloh tushunilishi mumkin. Shoir hech bir banda o‘z suyanganidan ayrilmasligini Xudodan iltijo qiladi.

Yana bir jihati ahamiyatliki, Navoiy devon tartib qilishda ,avvalo,Lutfiy g‘azallariga bitilgan muxammaslarni, so‘ngra o‘zining muxammaslarini kiritgan. Bundan shoirning ustoziga nisbatan hurmat va ehtiromining kuchliligi va o‘ziga xosligi deyishimiz mumkin. Navoiyning o‘z g‘azallaridan ijodiy foydalanib, yangi lirik janrdagi asarlar yaratganligi haqida navoiyshunos A.Abdug‘afurov o‘z mulohazalarini shunday bayon etadi: “Xazoyin ul-maoniy”dagi qolgan o‘n musammat Navoiyning o‘z g‘azallari asosida yaratilgan. Navoiy birinchi galda o‘z zamonasida shuhrat qozongan g‘azallarni muxammaslar shakliga keltirgan”[8:3]. XV asr adabiyotida yaratilgan muxammaslarda ishq mavzusining yuksak badiiy ifodasi Alisher Navoiy ijodida yorqin ko‘zga tashlanadi:

Ishq o‘tidin jismi zori notavonim o‘rtading,
Qaysi jismi zorkim, ruh-u ravonim o‘rtading,
Parda orazdin olib jon-u jahonim o‘rtading,
Vahki, o‘tlug‘ chehra ochib, xonumonim o‘rtading,
Otashin la’lingdin aytib nukta jonim o‘rtading

Bu satrlarda ishq olovi nafaqat jismni, balki ruhni ham kuydirishi holati aks etgan. Shoir muxammasnavislik an'anasiga muvofiq ravishda uning qofiyalanish tartibi (aaaaa – notavon-ravon-jahon-xonumon-jon)ni, mavzuni (muxammaslar ham g'azallar kabi dastlab ko'proq ishqiy mavzuda bitilgan), kompozitsiyani saqlagan.

Manbalarda keltirilishicha, muxammaslar aruzning hazaj va ramal bahrlarida faol yozilgan.

Jil-va qil-di /dahr aro ko'p /husni bexam /to yigit,

- V - - /- V - - /-V - - /- V - -

Gul kebi no /zik badanlik,/sarvdek ra' /no yigit

- V - - /- V - - /-V - - /- V - -

Ramali musammani mahzuf

Buyuk mutafakirning g'azallariga birinchi muxammaslarni o'z do'sti Sulton Husayn Boyqaro bog'lagan edi. Keyingi davrlarda esa Habibiy, Charxiy, G'afur G'ulom, Chustiy, Sobir Abdullo, Vosit Sa'dulla, Dushan Fayziy, Jumaniyoz Jabborov, O'lmas Jamol, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, To'lan Nizom, Abdulla Oripov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Shafolat Termiziy, Komil Avaz, Omon Matjon, Hayotxon Ortiqboyeva, Farid Usmon, Ismoil Mahmud, Usmon Azim, Xosiyat Bobomurodova hamda Sirojiddin Sayyid, Amir Xudoyberdi kabi shoirlar muxammas bitganlar. Muxammaslar orasida Nodiraning Alisher Navoiyning "Badoye ul-bidoya" dostonining "Ko'ngul jon birla bordi hamrahing, men dard ila turdum" g'azaliga bog'lagan muxammasi ahamiyatlidir.

Navoiy g'azaliga muxammas

So'rog'ingda biyobonlar kezib be pou sar yurdum,

Quyundek charx urib jismim g'uborin ko'kka sovurdum.

Sen azm aylab ketarg'a, men bo'lub bemor ,qayg'urdum,

Ko'ngul jon birla bordi hamrahing, men dard ila turdum,

Sanga jon birla ko'nglumni, seni tengriga topshurdum[9:308-309].

Muxammasning birinchi bandi aaaaa tarzida qofiyalangan va qofiyasi mutlaq qofiya hisoblanadi Shoir o'z misralarini Navoiy bayti bilan mohirona uyg'unlashtirib, hijron azobidagi oshiqning ruhiy holatini, uning "quyundek charx urib" chekayotgan iztiroblarini jonli va ta'sirchan ifodalay olgan. Muxammasdagi tashbeh, tazod, istiora ,tanosub, nido kabi san'atlar g'azalning badiiyligini oshirishga, oshiq dardining naqadar og'ir ekanligini kitobxonga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu esa mumtoz adabiyotimizda "muxammas" bog'lash an'anasining naqadar teran ildizga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu muxammas Alisher Navoiyning o'lmas merosiga bo'lgan yuksak ehtiromning yorqin namunasidir.

Xulosa. Xulosa shuki, Navoiy ham mustaqil muxammaslar, ham o'zidan avvalgi shoirlarning g'azallariga bog'langan tazmin-muxammaslar yaratilishi adabiyotimizda ushbu janrning rivojlanishi uchun katta namuna maktabini shakllantirdi, desak yanglishmaymiz. Navoiy muxammaslari o'zbek mumtoz she'riyatining murakkab va

jozibador namunalari bo'lib, ular bugungi kunda ham kitobxonni o'ylashga va tafakkur qilishga chorlamoqda. Shoir muxammaslari orqali turkiy tilning cheksiz imkoniyatlarini namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. - Т.: Фан, 1992. – Б. 220
2. АЛИШЕР НАВОИЙ. Тўла асарлар тўплами .Ўн жилдлик .Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент - 2011. – Б.661-662
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 196
4. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammatlar. –Т.,1976. –В. 34
5. Ҳайитметов А. Шайх Аҳмад Тарозий: —Фунун ул-балоға .Ўзбекистон тили ва адабиёти .2002. – В.25-26
6. Алишер Навоий. Мукамал Асарлар Тўплами. Йигирма жилдлик. 16-жилд. –Тошкент, Ўз Р ФА: Фан. 1998.
7. Yusupova D. Alisher Navoiy taxmislari <https://www.adabiyot.islamonline.uz/uzbek/mumtoz/1267-maqola.Pdf>
8. Абдуғафуров А. “Ҳазойин ул-маоний” девонларининг тартиб берилиши ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти,1995, №3.
9. Ўзбекистон республикаси Фанларакадемияси Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи .Нодира-Комила .Девон .Т.:Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент,2001.
10. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя <https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/1-ziyouz-com-kutubxonasi>.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934